

YUNUS RAJABIY NOMIDAGI O'Z TELERADIO QOSHIDAGI MAQOM  
ANSAMBLINING TARIXI VA BUGUNGI FAOLIYATI.

**Tursunov Jamshid Abduraimovich**

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası  
o'qituvchisi*

**Tursunov Xurshid Abduraimovich**

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada o'zbek xalqining ruxiy va ma'naviy hayotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast sozandayu hofizlar qoldirgan ulkan merosni urganish va unga sadoqat bilan yondashish xalqimizning muqaddas burchlaridan biridir deb yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *vatan tuyg'usi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik, radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, maqomshunos ilmiy-pedagog.*

**Аннотация:** *В статье поясняется, что одним из священных долгов нашего народа является изучение и добросовестное отношение к великому наследию, оставленному великими музыкантами и хафизами, внесшими большой вклад в духовную и духовную жизнь узбекского народа.*

**Ключевые слова:** *чувство Родины, вера в Родину, патриотизм, гуманизм, радио и телевидение, средства массовой информации, статус ученого и педагога.*

**Abstract:** *The article explains that one of the sacred duties of our people is to study and conscientiously treat the great heritage left by great musicians and hafiz who made a great contribution to the spiritual and spiritual life of the Uzbek people.*

**Key words:** *feeling of the Motherland, faith in the Motherland, patriotism, humanism, radio and television, the media, the status of a scientist and teacher.*

Kirish. O'zbek xalqi o'z mustaqilligini qo'lga kirgizganidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg'usi, vatanga e'tiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his- tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz ma'naviyati va mazmuniga aylanmoqda.

Jahondagi har bir millatning o'tmish tarixi. O'z ona tili, urf-odati, madaniyati va san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqi ham boy tarixga, madaniyatta va musiqa merosiga ega. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar qatorida milliy qadriyatlarning ummoni hisoblanmish madaniyat, san'atga ham katta ahamiyat berilmokda. Ayniqsa, yosh avlodni milliy ruhda, Vatanga sadoqatli kilib tarbiyalash borasida ma'naviy boyliklarning kuchi beqiyosdir. Ma'naviy boylik deganda albatta ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, tarix tushuniladi. Insonning ana shunday milliy qadriyatlar ruhida kamol topishi jamiyatning, millatning umrboqiyiligiga sabab bo'ladi,

desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, XIX-XX asrda tabarruk zaminimizda yashab ijod etgan. O'zbek xalqining ruxiy va ma'naviy hayotiga ulkan hissa qo'shgan zabardast sozandayu hofizlar qoldirgan ulkan merosni urganish va unga sadoqat bilan yondashish xalqimizning muqaddas burchlaridan biridir. Ma'lumki, maqomlarga, xalq kuy va ashulalariga talab xalqimiz orasida tobora ortib bormokda. Ana shunday talab va ehtiyojni qondirish maqsadida etuk ijrochi mutaxassislarni tarbiyalash mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Chunki bizning davrimizgacha etib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga bevosita o'tishida tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar. Ota Jalol Nosirov. Ota G'iyos Abdug'aniev. Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla Tuychi Toshmuxamedov, Shorahim Shoumarov. Matyusuf Xarratov. Matlano Xudoyberganov, Madrahim Yokubov (Sheroziy), Yunus Rajabiy, Domla Halim Ibodov. Usta Olim Komilov, Mamadbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov. Tuxtasin Jalilov, Safo Muganniy, Xojixon Boltaev, Nurmuhammad Boltaev. Ma'murjon Uzoqov. Faxriddin Sodiqov. Komiljon Jabborov. Imomjon Ikromov, G'anijon Toshmatov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov. Muxtorjon Murtazoev, Doni Zokirov, Komiljon Vataniyozov. Matniyoz Yusupov, Orifxon Yotamov, Fattohxon Mamadaliev. Rasulqori Mamadaliev va boshqalar ustozdan shogirdga o'tib kelayotgan asriy an'analarni davom ettirib, yangi mazmun, yangi g'oyalar bilan payvand qila olgan tabarruk zotlardir. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, albatta, har bir davrda milliy musiqa san'ati bobida O'z teleradiosi qoshida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli Ustozi xofiz bastakorlari uzidan uchmas iz qoldirgan buyuk insonlar yashab o'tganliklariga amin bo'lamiz. Yuqorida nomlari zikr etilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda o'zbek milliy musiqa san'ati tarixi zarvaraqlaridan munosib o'rin egallagan ko'plab ulug' san'at namoyandalarining hayotlari, ijodlarini o'rganish, ular qoldirgan meroslarga e'tiqod va sadoqat bilan yondashish qalbida milliy g'ururi bor bo'lgan har bir mutaxassis vatandoshimizning insoniy burchi desak o'rinli bo'ladi. Hozirgi kunda an'anaviy musiqa ijrochiligi sohasiga nazar tashlasak naqadar serqirra, serjilo vo borgan sari sayqal topayotganiga guvoh bo'lamiz. Ana shunday an'anani davom etilish uchun davom etishi avlod vakillari bo'lishimiz yoshlarimiz, ijrochi nazoratlari bilan barobar, kelgusida mutaxassis o'qituvchi, ya'ni bilimdon ustoz sifatida kamolga etishlari lozim. Bunday mutaxassislarning etishib chiqishlari kelajak avlodlarga an'anaviy musiqa merosimiz yanada sayqal topgan holda singib borishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislarning, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Yuqorida zikr etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish,

o‘zbek maqom san‘atini chuqur o‘rganib, o‘ziga xos ijro maktablari va an‘analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ‘ib qilish maqsadida: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining davlat muassasasi shaklida O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi (keyingi o‘rinlarda — Maqom markazi) faoliyatini tashkil etish haqidagi taklifi ma‘qullansin. O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tarkibi O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar dasturi O‘zbek milliy maqom san‘ati markazining tarkibiy tuzilmasi muvofiq tasdiqlansin. O‘zbek milliy maqom san‘ati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin: O‘zbekistonda maqom san‘atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an‘analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash; o‘zbek maqom san‘ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining “oltin fondi”ni yaratish xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san‘ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish maqom san‘ati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va targ‘ib qilish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san‘atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o‘rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish maqom san‘atining ko‘p asrlilik ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o‘rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash Yurtimizda maqom san‘ati bo‘yicha xorijiy yetuk ijrochilarning o‘zaro tajriba almashuvi, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish; respublika hududlarida taniqli maqom ijrochilarining konsertlarini va mahorat darslarini tashkillashtirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Ma‘lumki, inson ovozing tuzilishi har qanday musiqiy cholg‘udan mukammaldir. Musiqashunos olim O. Matyoqubov bu xususida o‘zining «Maqomot» kitobidan bir lavha keltirsak: «Sharqda inson ovozi barcha cholg‘u asboblarining ibtidosi» deb qaralgan. Musiqiy cholg‘uning mukammal va nafisligidagi bosh mezon - insonning ovoz tabiatiga hamohangligidir. Qo‘l bilan yasalgan cholg‘u asbobiga nisbatan inson ovozi mohiyatan birlamchi hamda mo‘tabar hisoblangan». Haqiqatdan ham odam ovozi, ayniqsa xonandalar ovozi juda mo‘tabardir. Chunki musiqiy cholg‘ular odam ovozi ohangini takrorlash maqsadida yaratilganligi hammamizga yaxshi ma‘lum. Har bir xonandaga yaratganning ne‘matlari ichida ovoz ham qo‘shib berildimi, demak bu ham parvardigoming yana bir marhamati

bo'ladi. Bunday ne'mat har bir xonanda uchun boylik hisoblanadi. Shu boylik orqali elga taniladi va nihoyat kelajak avlodga ulkan ma'naviy boylikni meros qoldiradi. Shunday ekan, har bir xonanda o'z ovozi boylik bilib uni asrashi, parvarishlashi lozim. Ya'ni ovoz tuzilishini va tomoqda ovoz hosil qilish jarayoni qanday kechishini bilishi zarur. Bu narsalarni bilgan xonanda ovozi parvarishlashi va uni asrab-avaylashi oson kechadi. Bo'lajak yosh xonandalar ovozi noto'g'ri ishlatib, uni buzib qo'yish hollari ham ko'plab uchraydi. Bunday voqealar sodir bo'lmasligi uchun, har bir xonanda o'z ovozi qanday qo'llash va uni jismoniy hamda akustik tomonlarini chuqur o'rganib chiqishi taqozo etiladi.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

- 1.Yu.Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. I-V tomlar. – T., 1957-1959.
- 2.M.Yusupov. O'zbek xalq musiqasi (Xorazm aShulalari). – T., 1962.
- 3.Ye.Romanovskaya. O'zbek xalq qo'Shiqlari. I,II-tomlar. – M., 1939.
- 4.I Rajabov. Maqomlar. – T., 2006.
- 5.O.Matyoqubov. Maqomot. -T., "Musiq", 2004.
- 6.M.Ermatov. An'anviy xonandalik. – T., 2003.